



MENEJMENT SOHASIDA KORPORATIV BOSHQARUV NAZARIYALARI

Elomonov Ro'zimurod Doniyor o'g'li,

Toshkent shahar Uchtepa tumani

Yangiyo'1 mahallasi yoshlari yetakchisi

Telefon: +998937954636

elomonovrozmurod@gmail.com

ANNOTATSIYA: Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va hozirgi kunda jahonda tutgan o'rni beqiyosligi. Mazkur maqolada menejment sohasida korporativ boshqaruv tushunchasi va jahon tajribalarini o'rganish nazariyalarini ochib beradi.

KALIT SO'ZLAR: Korporativ boshqaruv, zamanoviy korporatsiya, fond birja, mahalliy korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy kapital.

Boshqaruv o'z ichiga tashkilotni boshqarish va boshqaruv mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi tizimlar yig'indisi hisoblanadi. Alovida tizim va tizim osti jarayonlarini boshqaruv jarayoni "davlat boshqaruvi", "ijtisodiy boshqaruv", "ijtimoiy boshqaruv" kabi tushunchalarda o'z aksini topadi. Misol uchun, "ijtimoiy boshqaruv" tushunchasi jamiyat va uning alovida qatlamlari normal sharoitda faoliyat olib borishi, rivojlanishi va taraqqiy etishiga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi sanaladi. Tashkilot boshqaruvi esa tashkilot a'zolarining aniq maqsadlarga qaratilgan tartibli harakatlari yig'indisidir. Bu jarayonda tashkilot a'zolari maqsadli harakatlarni amalga oshirish jarayonida ular o'zaro aloqaga kirishadi va ular orasida ma'lum munosabatlar yig'indisi yuzaga kelib boradi.

Boshqaruv jarayoni qaysi tarmoq yoki tashkilotda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, u o'zida menejmentning 4 asosiy funksiyasi: rejalashtirish, tashkillashtirish, motivatsiyalash va nazorat funksiyalarini o'z ichiga qamrab olishi zarur. Bundan tashqari boshqaruv jarayonining statistik (boshqaruv xodimlari mehnatining me'yorlashuvi, tashkiliy tuzilma) va dinamik (kommunikatsiyalar, axborot oqimi, qarorlarni qabul qilish jarayoni, hujjatlar bilan ta'minlanganlik) xususiyatlari ham mavjud. Davlat hokimiyati organlari va tijorat tashkilotlari boshqaruvining samaradorligini ta'minlashdagi va mavjud resurslardan oqilona foydalanishdagi muammolarning aksariyati tashkilot tashkiliy tuzilmasi, axborot oqimidan



foydalinish, tashkilotda shakllangan rasmiy va norasmiy guruhlar ta'siri, shuningdek tashkilot madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq.

Ma'lumki, ta'lismiz muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan, ma'lum tamoyillar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalari yig'indisi sifatida qaralar ekan, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori ta'lismizi rivojlantirish, uning sifatini oshirish, boshqarish, bu jarayonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rGANISH masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu esa o'z navbatida korporativ boshqaruv bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, yirik aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv jarayoniga xorijiy ekspert va mutaxassislarning jalb qilinishi jarayonini jadallashtirdi. Keling endi korporativ boshqaruvning kelib chiqish tarixi, shart-sharoitlari va jahon amaliyoti xususida so'z yuritsak.

Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanishi bir nechta bosqichga bo'lish mumkin:

1. XVII asrda Ost - Ind (East India Company) kompaniyasi 24 a'zodan iborat bo'lgan direktorlar kengashini tashkil qildi. Birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo'lib olindi;

2. 1776-yili Adam Smit o'zining "Xalqlarning boyligining sabablari va tabiatlari haqidagi tadqiqotlari" asarida ta'kidlaydiki: "Tashlab qo'yilgan mulklar boshqaruv uchun muammolarni keltirib chiqaradi", ya'ni boshqaruv va menejerlarni nazorat qilish uchun salbiy mexanizm hisoblanadi;

3. 1844-yilda birinchi marta aksiyadorlik jamiyatlari haqida qonun qabul qilindi. Qonunchilikka mulkchilikning yangi javobgarligi shaklidagi majburiyatları joriy etildi;

4. 1931-yilda A. Berli va G. Minzlar «Zamanoviy korporatsiya va xususiy mulkdor» nomli maqolasini nashrdan chiqardi (AQSh). Unda birinchi marta mulkchilik vazifalarini nazorat vazifalaridan to'la to'kis farqi ajratib berildi;

5. 1933-1934-yillarda AQShda qimmatbaho qog'ozlar haqida qonun qabul qilindi, 1933-yilda qabul qilingan ushbu qonun fond bozorini tartibga soldi. Ushbu bosqichda "Qimmatbaho qog'ozlar va birjalar to'g'risida"gi (1934 yil) aktga asosan axborotlarning



ochiq berilishi imkoniyatini mavjud bo'ldi va ushbu yili qonunlarni bir tartibda nazorat qiladigan, qimmatbaho qog'ozlar bozorini va birjalar faoliyatini bo'yicha komissiya tuzildi;

6. 1968-yilda Yevropa ittifoqi «Kompaniyalar to'g'risida» qonun qabul qildi;
7. 1990-yillarning boshida – tadbirkorlik imperatsiyasi inqirozga uchradi. Buyuk Britaniyada kelishmovchiliklar yuzaga keldi: bir qator kompaniyalar (Polly Peck, BCCI, Maxwell), aksiyadorlarni aldash bilan shug'ullanishlari korporativ boshqaruvning amaliyotda investorlarni himoyalashni takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi;
8. 1992-yil. Kedberi qo'mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo'yicha kodeksi nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993 yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi;
9. 1992 – 2003-yillarda korporativ boshqaruv bo'yicha qator ma'ruzalar qabul qilindi, shundan asosiy lari:
 - 1) Angliyada Rutmanning moliyaviy hisobot va ichki nazorat haqidagi ma'ruzasi;
 - 2) Korporatsiyalar ishtirokchilarining har tomonlama hisobi haqidagi Kinganining ma'ruzasi;
 - 3) Angliyalik Grinberining yuqori mansab shaxslarini rag'batlantirish to'g'risidagi ma'ruzasi;
 - 4) Angliyalik Xempelaning korporativ boshqaruv to'g'risidagi ma'ruzasi;
 - 5) Fransiyalik Venoning korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari haqidagi ma'ruzasi;
 - 6) Niderlandiyalik Pitersning korporativ boshqaruvning umum qabul qilingan andozalariga rioya qilmaslik va javobgarlik haqidagi ma'ruzasi;
 - 7) AQShda Sarbeyns - Okslining moliyaviy ekspertlarning auditini bo'yicha qo'mita tarkibini aniqlash bo'yicha qonuni;
 - 8) Angliyalik Xiggsning ish faoliyatini bajara olmayotgan direktorlar haqidagi ma'ruzasi.

O'zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:



1. 1980–1985-yilgacha mavjud bo‘lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya’ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy holatining rivojlanishiga to‘siq bo’ldi.

2. 1987–1991-yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarning qatnashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug‘urta sektori rivojlanishiga yo‘l ochildi.

3. 1991–1994-yillarda – xususiy lashtirish jarayoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatlari shakllandi, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko‘rsatib berilmadi.

4. 1994-1998-yillardagi korxonalarni xususiy lashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlari to‘g‘risida qonun, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiy lashtirish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investitsion fondlar, depozitariylar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalari, qo‘shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

5. 1998-2001-yillar defolt, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kapitalning O‘zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko‘rib chiqila boshlandi. Bularning barchasi hissadorlarning o‘z huquqini anglab yetishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya’ni korporativ kodeks, hissadorlik to‘g‘risidagi, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunlar bo‘yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me’yor va usullarining aprobatsiyasidan keyin keng qo‘llanila boshlandi.

6. 2002-yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to‘g‘risidagi kodeksi, korporativ boshqaruv bo‘yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan joriy etilishi ta’minlanmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik



jamiyatlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksiyadorlik jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakolatlariga aniqlik kiritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institutsional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- davlatning korxonalarini xususiylashtirish va ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlashga qaratilgan choralar;
- davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish shaklida davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni, emissiya ko'lamlarini kengaytirish va ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish;
- korxonalar aksiyadorlari huquqlarini davlat va uning vakolatli idoralari tomonidan himoya qilinishining mustahkam qonunchilik va institutsional bazasini yaratish.

O'zbekiston Respublikasida yirik aksiyadorlik jamiyatları va davlat ulushi bo'lgan korxona hamda tashkilotlarda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 223-I-sonli "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"⁶⁵gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O'RQ-837-sont.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 farmoni.

⁶⁵ <https://lex.uz/docs/-6567>

**Internet saytlari**

4. www.gov.uz – Vazirlar Mahkamasining rasmiy veb – sayti.
5. www.lex.uz – sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.
6. www.regulation.gov.uz-sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

